

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBIR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI
III-BOSQICH TALABASI
«MUSIQA TARIXI» FANIDAN

KURS ISHI

MAVZU: XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o'zbek

musiqasining rivojlanishi

MUSIQA TA'LIMI 5111100

RAXBAR : Q.Nurdinov

BAJARUVCHI: Abduraxmonova Odina

ANDIJON-2015

**Mavzu: XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida
o'zbek musiqasining rivojlanishi**

Reja:

Kirish

Asosiy qism

1. XIX asr (1860-1917 yillar) oxirlarida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati.
2. XX asrning (1920-1938 yillar) boshlarida musiqa madaniyati.
3. XX asrda ijod etgan Fitrat va musiqa

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilova

Kirish

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jaxon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodni bilimdon, ma'naviy jixatdan barkamol insonlar bo'lib etishishiga bog'liqdir.

Jamiyatimizning yangilanishi va demokratlashuvi O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy siyosiy iqtisodiy o'zgarishlar munosabati bilan yosh avlodga ta'lim tarbiya berish sifatlarini oshirishga bo'lgan tashkiliy pedagogik, psixologik yondoshuvning takomillashuviga alohida e'tibor berilyapti. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi oliy majlisi IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'quv dasturini zamonaviy talablarga moslashtirib istiqbol va kelajagimizni ko'zlagan xolda tuzib olishimiz va joriy etishimiz zarur deyilgan. SHunga muvofiq talabalar akademik litsey va kasb xunar kollejlarida mutaxassislikka yo'nalishlar bo'yicha chuqurlashtirilgan dasturlar asosida bilim oladilar.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning asosiy ustuvorligidan biri – bu fanlararo bog'liklikni yo'lga qo'yishdir. Musiqa – san'atning bir turi. U san'atning yana boshqa turlari bilan musiqa chambarchas bog'liqdir. Masalan musiqa darslarini raqs, she'riyat (adabiyot), badiiy san'at va san'atning boshqa turlari, undan tashqari jismoniy tarbiya, tasviriy san'at va boshqalar bilan qo'shib olib borish nazarda tutilgan.

YUrtimizda milliy totuvlik va fuqorolar osoyishtaligining barqarorligi xukm surmoqda. Musiqa san'ati – avvalo bu shunday san'atki, u insonning o'zi tomonidan yaratiladi va uning o'ziga xizmat qiladi. Inson ikki narsa tufayli mavjuddir biri ruh, ikkinchisi tanadir. Insonda tana bo'lsa-yu ruh bo'lmasa yoki ruhi tushkun holatda bo'lsa, u jonsiz vositaga aylanib qolishi mumkin. Ruhni harakatlantiruvchi, unga kuch bag'ishlab yangi maqsadlar sari etaklaguvchi va eng asosiysi unga ma'naviy ozuqa va madaniy xordiq berguvchi vosita-musiqa san'atidir. San'atning turli qirralari mavjud va har biri kishi ruhiyatiga qaysidir bir

tomonlama ta'sir etish uchun yaratiladi. Musiqa san'ti har kimda emas, balki musiqani butun vujudi bilan his qilguvchi va uni tshuna oladigan kishilar tomonidan ijod etiladi. va aynan o'sha kishilarning tasavvur va kechinmalarini. His tuyg'ularini, ifodaviylik vositalari orqali talqin-qilinadi. Musiqa qadim davrlar mobaynida shakllangan va rivojlanib kelayotgan, ustoz sozandalar tomonidan avlodlar osha bizgacha etib kelib, bugungi yanda takomillashib kelayotgan san'at namunasidir. Musiqa ilmining yaratilishi haqida allomalarimiz o'z ijod namunalari orqali ko'plab manbalar yozib qoldirganlar, uning ijro etilishi tartibini amaliy izohlab berishi tufayli bgun biz musiqa san'ati uning taraqqiy etish jarayonini tasavvur eta olamiz. SHuni ta'kidlash kerakki, bu jarayon to'xtovsiz rivojlanishda bo'lib kelgan va u hech qachon to'xtab qolgan emas. SHu tariqa rivoj topib, o'z qadr qiymatini oshira borgan, o'z navbatida bu sohani harakatlantiruvchi guruhlar shakllangan. Xalqning musiqiy ijodiga bo'lgan yuksak qiziqish va musiqa san'tiga doimiy bizning hududda ham musiqa san'ati yuksak qadr topishiga sabab bo'la olgan. YAqin - yaqingacha milliy cholg'u asboblari nisbatan e'tibor susaygandek bo'ldi, milliy an'ana va qadryatlarimiz tiklangach, bu jarayon shunday jadal surratlarda rivojlana bordi. SHuni ta'kidlash joizki, har qanday sharoitda ham musiqa bizning xalqimiz qalbiga oshno bo'lib, sayqal bera olgan.

«Hind va O'rta Osiyo», shu jumladan o'zbek xalqining madaniy aloqalari juda qadim zamonlardan boshlanadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Grek Baktriya (Mil. av.250-130y.) davlati tashkil topgandan buyon O'rta osiyo xalqi Hind madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Ikki xalqning madaniy aloqalarida, ayniqsa kitob tarqalishi va savdosi an'analari katta o'rin egallaydi.

O'zbek musiqa tarixi qadim zamonlardan to shu kungach o'z salmoqli o'rniga ega bo'lib kelgan. Bu bosib o'tgan mashaqqatli yo'llar davomida ulug' istoz san'atkorlar mehnati boqiy.

Kurs ishining dolzarbligi: halq musiqa madaniyatining tarixiyligiga qaratilgan bo'lib, «O'zbek musiqa tarixining rivojlanishi bosiqchlari» mavzusida tanlangan va milliy musiqamizning rivojlanishi jarayonlari asos qilib olingan.

Kurs ishining maqsadi: kelajak avlodga tarix zarvaraqlarini asrlar mezonida ko'rsatib ishni yoriyish.

Kurs ishining ob'ekti: O'zbek musiqa tarixi qadim zamonlardan to shu kungacha bosib o'tgan yillari va musiqa madaniyati.

Ishning nazariy-metodologik asoslari: Prezident I.A.Karimov asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Davlat farmonlari, tadqiqot mavzusiga oid tadqiqotchi olimlar risola va qo'llanmalari hamda darsliklar tashkil etadi.

Kurs ishining umumiy xajmi kirish, asosiy qism uchta reja, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, har bir reja, asosli ravishda yoritilgan.

1. XIX asr (1860-1917 yillar) oxirlarida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati.

XIX asrning 70-80 yillaridagi O'rta Osiyo tub joy aholisining xayoti (oilaviy turmush tarzi, urf-odatlar, musiqachilik ahvoli, marosimlari) rus va horijiy etnografik-folklorshunoslarining diqqatini o'ziga jalb etgan. Xalq madaniyatining tarkibiy kismiga kirgan xalq cholg'ulariga bo'lgan qiziqishning boisi ham shunda. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O'rta Osiyoga kelgan etnograf va sayyohlar Turkiston o'lkasining xalq musiqasini yozib olishda (notalashtirishda) muayyan ishlar qilishdi, bunda ular xalq cholg'ularini o'rganishga alohida e'tibor berishdi. Ular o'z ijodiy ishlarida musiqaning o'ta ommaviyligiga, uning xalq hayotida muhim rol o'ynashiga ahamiyat berishdi.

Mazkur manbalar tufayli biz musiqa san'ati mundarijasi, ijrochilik turlari, mustiqa an'analari, cholg'ularining ta'riflari, o'zbek xalq kuylarining nota yozuvlari haqida ma'lumotga ega bo'ldik.

N.S.Likoshinning "YArim umr Turkistonda" (SPb, 1917) kitobida va boshqa asarlarda xalqning boy badiiy merosiga, an'alariga, o'zbek xalq cholg'ularining ahvoliga muayyan o'rin ajratilgan.

Turkiston o'lkasining taniqli tadqiqotchisi V.I. Massal'skiy yozadi: "Musiqa cholg'ulari (dutor va qobiz)ni deyarli barcha xonadonda uchratish mumkin edi..."¹. Bu shundan dalolat beradiki, xalq turmushida oilaviy musiqachilik keng tarqalgan bo'lib, chalishga esa eshitish qobiliyatiga asoslanib o'rgatilgan.

N.S.Likoshinning guvohlik berishicha: "Toshkentda yangi, notanish gusli, uimbalga o'xshash ko'p torli musiqa asbobida ikki xivchin yordamida sodda kuylar chaluvchi tunganlik kishi paydo bo'ldi: Uni g'aroyib yangilik sifatida to'xtovsiz yig'inlarga taklif eta boshlashdi. Keyin mahalliy qo'sh cholg'uchilardan biri tungandan changni sotib olib, nafaqat uning iqlarini, balki boshqa ko'pgina, sof milliy kuylarni ham chala boshladi. Bu tinglovchilarda o'ta yoqimli taassurot qoldirdi. SHundan buyon uimbalchi torli

orkestr tarkibida barcha yig'inlarga taklif etila boshlandi"². 1917 yilga qadar to'plangan musiqa cholg'ulari kolleksiýalarining eng boyi Sirdaryo viloyati musiqa xorining harbiy kapelmeysteri A.F.Eyxgornnikidir³ (o'sha paytda harbiy orkestrlar shunday atalgan). U qariyb barcha o'zbek xalq cholg'ularini to'plagan, Eyxgorn ularni quyidagicha ta'riflaydi: Ikki buralma torli yarim nok shaklidagi dutorni u lyutnyalar guruhiga, g'ijjakni uch torli (fors kamonchasiga o'xshash) kamonchali cholg'ular guruhiga, rubobni esa (buxoro yoki afg'on ruboblari nazarda tutilgan) mandolinalar guruhiga kiritgan. Muallif surnayni qamish puflagichli qadimiy damli cholg'u, qo'shnayni qo'sh qamishli fleyta (Eyxgornning ta'kidlashicha, bunday fleyta (qo'shnay)larda o'zbeklar qo'shiqqa mohirona jo'r bo'lishgan, karnayni esa tantanali marosimlarda, harbiy yurishlarda xabar beruvchi vositachi, ya'ni to'g'ri shaklga ega bo'lgan O'rta Osiyo aholisining harbiy burg'usi deb ta'riflaydi. CHirmanda (doyra)ni musiqashunos qadimiy Misrliklarning qo'l litavralarini eslatuvchi chetlarida halqalari bo'lgan nog'oracha (tanburin) kabi qo'shiq va raqs ohanglariga jo'rlikda qo'llaniluvchi musiqa cholg'usi deb ta'riflaydi. Nog'orani Eyxgorn ikki kichik sopol hurmacha va ikki urma tayoqchadan iborat, deb ta'riflaydi. Safoilni u Qashqardan keltirilgan xalqalari ko'rinadigan shiqildoqlar guruhiga kiritadi. Musiqashunos etnograf changni qizlarning sevimli cholg'usi deb ataydi. A.F.Eyxgorn har bir musiqa cholg'usiga batafsil ta'rif bergan XIX asrning ikkinchi yarmidagi ilk folklorshunoslaridan biridir. U musiqa nazariy ilmi va folkloriga katta hissa qo'shgan. O'zbek kuylarini mashhur harbiy kapelmeyster V.V.Leysek ham notaga yozib olib, ular asosida damli cholg'ular orkestri uchun "Osiyo popurrisi" p'esasini yozdi⁴. Harbiy kapelmeysterlarning ma'rifatchilik faoliyati mahalliy ziyolilarga rus va jahon musiqasi namunalari bilan tanishish imkonini yaratdi. SHu bilan bir vaqtda teatr va musiqa san'ati bo'yicha havaskor to'garaklar vujudga keldi. Bu kishilarning ko'pchiligi, ommada estetik didni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan kasbiy musiqiy bilimga ega edilar.

V.V.Leysek⁵ ham jamiyat ishlarida juda faol qatnashdi. Harbiy kapelmeysterlar nafaqat xalq kuylarini yozib olish, musiqa cholg'ularini to'plashga va ayni paytda xalq cholg'ularida ijro etish mahoratiga ham shubhasiz hissa qo'shishdi.

Ko'rgazmada XIX asr oxirida xalq orasida mavjud bo'lgan cholg'ularning barcha turlari bir necha zallarda namoyish etilgan. O'sha davrning mashhur musiqa tarixchisi N.F.Findeyzen: "O'rta Osiyo bo'limi cholg'ularga eng boy bo'lim edi. Bu erda torli va urma zarbli cholg'ularning yaxshi nusxalarini uchratish mumkin"⁶, deb yozgan edi. Taniqli musiqashunos T.Vыtzgo

"Nijegorod ko'rgazmasi Markaziy Rossiya aholisining turli tabaqalarini O'rta Osiyo hududi cholg'ulari bilan tanishtirishni boshlab berdi"⁶, deb ta'kidlagan edi.

Bu davr Turkiston o'lkasi musiqiy hayotida boshqa ijobiy voqealar ham yuz berdi. O'rta Osiyoga Ovro'pa cholg'ulari kirib kela boshladi (simfonik orkestr, damli va urma zarbli cholg'ulari orkestrining musiqa cholg'ulari, fortepiano, do'mbira nazarda tutilgan). Xorazmda Rossiyadan keltirilgan garmonika paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysi va Toshkentda cholg'ular g'ijjakni skripka bilan almashtira boshladilar. O'zbek cholg'ulari ijrochiligi boshqa xalqlar musiqa madaniyati yutuqlari bilan ham boyidi.

XIX asrning 80-90 yillarida barcha harbiy qismlarda damli cholg'ular orkestrlari mavjud bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ko'rgazmalar, yarmarkalar, tantanalar kabi turli xil jamoat tadbirlarida xazmat kilishgan.

2. XX asrning (1920-1938 yillar) boshlarida musiqa madaniyati.

Buxoro amirligi va Xiva xonligining yemirilishi hamda Buxoro Xalq Sovet respublikasi (1920 y.), Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (1920 y.), ular negizida O'zbekiston Respublikasi (1924 y.), so'ngra Tojikiston Respublikasi (1929 y.) tarkib topgan. Aynan shu vaqtda asrlar qa'ridan kelayotgan klassik musiqa an'analarida o'zgacha qarashlar sodir bo'la boshladi. Yangi siyosiy bo'linishlar natijasida maqom san'atining qadimiy o'choqlari bo'lmish Buxoro, Xorazm, Farg'ona va Toshkent O'zbekiston hududiga kirganligi munosabati bilan Buxoro, Xorazm va Farg'ona-Toshkent uslublari umumlashtirilib, mushtarak an'ana sifatida ko'rila boshlandi. Shuning uchun A.Fitratning 1927 yidda chop etilgan kitobi "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb nomlanishi ham bejiz emas.

O'zbekistonning markazi dastlab Samarqand bo'ldi. Poytaxtga xos bo'lgan barcha madaniy muassasalar ham shu shaharda joylashdi: markaziy konsert, teatr tashkilotlari, respublika radiosi va o'quv muassasalari. San'at sohasidagi birinchi o'quv va ilmiy dargoh - Musiqa va xoreografiya instituti ham 1928 yilda Samarkandda ochiddi. Bu institutda o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlari barobariga olib borildi. O'quv dasturlari an'anaviy hamda yevropa yo'nalishlarida amalga oshirilgan. Milliy musiqadan ta'lim berishda tarixiy shakllangan uchala maqom maktabi ham nazarda tutilgan. Farg'ona yo'lidan Abduqodir Ismoilov, Xorazm uslubidan Matyusuf Xarratov, Buxoro Shashmaqomidan Domla halim Ibodov, Abdurahmon Umarov kabi yetuk ustozlar dars berish uchun jalb etilgan. Yevropa musiqa savodidan N.N.Mironov o'qitgan. Ayni chog'da u institut direktori lavozimida bo'lib, o'zbek va tojik musiqasiga oid ilmiy izlanishlar ham olib borgan .

1928 yilda tashkil qilingan Samarkand musiqa va xoreografiya ilmiy-tekshirish instituti o'z davrida musiqa merosini o'rganish buyicha eng katta dargox bo'lgan. Bu yerda ta'lim olgan M. Burxonov, T. Sodirqov, M. Ashrafiy, M. Leviyev, D. Zokirov va ko'plab boshqa kompozitor, ijrochi hamda musiqashunoslar ta'lim oldilar .

SHo`ro hukumatining dastlabki yillarida Buxoroda Fitrat tashkil etgan "Sharq musiqa maktabi"ga o`xshab Xivada ham bolalar musiqa maktabi ochildi. Uning birinchi direktori Muhammad Yusuf Xarrot (Matyusuf Xarratov) bo`ldi. Otasi Matyoqub Xarrot shu maktabda yoshlarga maqom o`rgata boshladi. Lekin maktabning milliy musiqa o`rganish bilan bog`liq faoliyati uzoq davom etmadi. 1924-25 yillarning o`zidayoq u butunlay boshqa yo`nalishdagi "Bolalar uyi"ga aylantirildi. Xiva musiqa maktabi o`qituvchi va talabalari atoqli maqom ustози Matyoqub Xarrot bo`lgan keyinchalik u Xiva va Urganch teatrlarida ijrochilik qilgan. Nuroniy sozandaning hayoti kutilmaganda achinarli tugagan 1937 yoki 1938 yilning yoz faslida Urganch teatrining ochiq sahnasida divijokdan quvvat oladigan elektr chiroqlari tez - tez o`chavergan. Osmonda esa oy charaqlab turgan. Shunda Matyoqub Xarrot hech qanday g`arazsiz -Ollohning nuri porlab turganda "jin chiroqning" nima keragi bor ekan, degan emish. Shu "mish-mish" gapning o`zi kekxa san`atkoriga "Ilich chirog`i"ni haqorat qildi, deb ayb qo`yilishi uchun kifoya bo`lgan. "Xon saroyida xizmat qilgan" degan ustama "ayb" ham qo`shilgan. Xullas, siyosat ko`chasidan o`tmagan qariya "xalq dushmani" sifatida ta`qib ostiga olingan.

Matyusuf Xarrotning o`zi esa 1928 yil tashkil etilgan Samarqand "Musiqqa va xoreografiya ilmiy-tekshirish instituti"da "Xorazm uslubi"dan dars berish uchun taklif etilgan. So`ngra markaz Toshkentga ko`chishi munosabati bilan u poytaxt radiosida sozandalik vazifasini bajargan. Biroq umrining oxirigacha (1952 y.) xavf -xatar ostida yashagan. Hattoki siyosatdan qo`rqib, adabiy taxallusi "Chokar" (xizmatkor) ekanligini yashirib yurgan.

Shu davrlarda ko`pgina nomdor sozandalari ham o`zining xon saroyiga aloqadorligini yashirishga majbur bo`lganlar. Ularning xos san`atiga yangi tuzumning ehtiyoji ham bo`lmagan.

O`zbekiston poytaxti Toshkentga ko`chirilishi munosabati bilan mazkur institut 1932 yildan ilmiy tadqiqotlar markazi sifatida faoliyatini davom ettirdi.

Milliy musiqa merosini yozib olish va qayta ishlashga doir ishlar 1919 yil dekabrda Turkiston respublikasi maorif Xalq Komissarligi San`at bo`limi qoshida

Badiiy-etnografik komissiya tashkil etildi. Komissiyaning dastlabki vazifalaridan biri bo'lib hisoblangan musiqa folklorini yozib olish ishning boshqa barcha turlarini ham o'ziga qaratdi, natijada komissiya bir butun, Musiqali-etnografik komissiya deb atala boshladi. G'. Zafariy, N. Mironov, V. Uspenskiy komissiya a'zolari edi.

O'zbekistonda musiqa folklorshunosligiga asos soluvchilar orasida V. A. Uspenskiy alohida ajralib turdi. Uspenskiy ko'p asrlik badiiy madaniyat an'alarining vakillari—xalq musiqachilari orasida juda tez do'stlar topar edi, shuning o'zi ko'pincha uning ishlarining muvaffaqiyatini belgilab berardi.

SHashmaqomning yozib olinishi muhim ish bo'ldi. Ana shu maqsadda Musiqali-etnografiya komissiyasi Uspenskiyni Buxoroga komandirovka qilgan edi. Uspenskiy Buxoroda bir yildan ko'proq (1923—24) turib, taniqli ijrochilari—hofiz Ota Jalol Nosirov va tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar bilan hamkorlikda ish olib bordi.

20-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston va Turkmaniston bo'ylab bir qator Musiqali-etnografiya ekspeditsiyalar tashkil etildi. Ekspeditsiya materiallari V. Uspenskiy va V. Belyaevning birinchi tomi 1928 yilda Moskvada nashr qilingan «Turkmenskaya musiqa» asarida berildi. Uspenskiy notaga olgan Shashmaqom tsikli «Shest muzikalnix poem (maqom)» nomi bilan 1924 yilda Buxoroda nashr qilindi.

O'rta Osiyo respublikalarida bu sohada dastlabki qadamlar V. A. Uspenskiy va N. N. Mironov tomonidan qo'yildi. Ular qayta ishlagan xalq kuylari 1922 yil fevralda Toshkentda ijro etildi. Mironovning syuitasi simfonik orkestr uchun moslashtirilgan sakkizta xalq qo'shig'ini (to'rtta o'zbekcha va to'rtta qozoqcha) o'z ichiga olgan edi..

Uspenskiyning 20-yillarning boshlarida alohida pesalar tarzida maydonga kelib, keyinchalik «Chetire melodi narodov Sredney Azii» (v obrabotke dlya simfonicheskogo orkestra) degan umumiy nom bilan Moskvada nashr etilgan (1934) partiturasini o'zgacha belgilarga ega. Partitura simfonik orkestr uchun qayta ishlangan o'zbekcha, afg'oncha va ikkita qozoqcha qo'shiqdan tashkil topgan.

Uspenskiy bilan bir qatorda o'zbek xalq kuylarini garmoniyalashda boshqa musiqachilar ham o'z kuchlarini sinab ko'rdilar. 20-yillarning oxiriga kelib O'zbekistonda N.N.Mironov rahbarligidagi Samarqand o'zbek Musika va Xoreografiya instituti (Inmuzxoruz) folklorshunoslik ishlarining tashkiliy markaziga aylandi. Institut o'zining Samarqandda ishlagan yillari mobaynida (1928-32) nusxa ko'chiruvchi valiklarda besh yuzdan ortiq xalq ijodi asarlarini yozib oldi hamda bir qancha kitoblarni nashrga tayyorladi. Bular orasida Mironovning «Muzika uzbekov» (1929), «Obzor muzikalnnoy kultur uzbekov I drugix narodov Vostoka» (nota yozuvi M. Ashrafiy, SH. Ramazonov va T. Sodiqovlarniki, 1931, «Pesni Fergani, Buxari i Xivi» (1931) kitoblari bor edi. Har bir nashr etilgan kitob Mironovning kirish maqolari bilan ochilgan bo'lib, ularning shogirdlari notaga olgan xalq kuylari to'plamidan iborat edi.

Institut milliy san'atni o'rganish bilan birga musiqa ta'limi bilan ham shug'ullandi. Shashmaqomni hamda xalq cholg'u asboblari chalishni o'rganar edilar. Buxorodan (Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov), Xorazmdan (M. Xarratov) va Farg'onadan (A. Ismoilov, A. Umurzoqov) taniqli hofiz va sozandalar Samarqand institutida jamlanganligi tufayli o'quvchilar respublikaning turli oblastlari musiqasining mahalliy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga o'quvchilar uchun elementar musiqa nazariyasi va solfedjio ham o'tilar edi, ularning o'zlari ham asarlar yaratishni, ayrimlari esa orkestrga dirijorlik qilishni o'rganar edi. Bu erda keyinchalik mashhur bo'lib ketgan T.Sodiqov, M. Ashrafiy, M. Burhonov, D. Zokirov, M. Leviev, Sh. Ramazonov, O. Halimovlar o'zlarining musiqiy bilimlarini chuqurlashtirdilar.

Birinchi musiqali teatrlar 1918 yili Toshkentda tashkil etilgan rus opera teatri Turkistondagi birinchi musiqali teatr edi. Teatr tashkil bo'lganga qadar havaskorlar musiqali teatr jamiyati kuchi bilan klassik operalardan parchalar ko'rsatar edi. Bu postanovkalarni eng aktiv va talantli ishtirokchilari opera teatrining birinchi sostaviga solist sifatida kirgaya edilar. Teatr o'z faoliyatini boshlashidanoq o'zining xor va simfonik orkestriga ega edi (birinchi dirijyori F. Sedlyachuk). Teatr sostavi tez orada Rossiyaning etakchi teatrlar artistlari bilan mustahkamlandi.

Spektakllarda O'rta Osiyoda gastrolga yurgan rus opera sahnalarining ustalari L.V.Sobinov, A.V.Nejdanova, G. S. Pirogov, P. I. TSesevich va boshqalar ishtirok etdilar. 20-yillar teatr postanovkalari orasida Dargomijskiyning «Suv parisi», Chaykovskiyning «Evgeniy Onegin» va «Mazepa», Verdining «Traviata» hamda «Rigoletto» va boshqa klassik operalar bor edi. Teatr sahnasida G. I. Gizler (Arskiy)ning «Stenka Razin» opsasi muvaffaqiyat bilan o'y-naldi.

Rus opera teatri faoliyati bilan teng ravishda o'zbek musiqali teatrini tashkil etish bo'yicha ishlar olib borildi. Bu sohada dastlabki qadam 1918 yilda Farg'onada «Musulmon yoshlarning musiqali-dramatik truppasi»ni tuzgan Hamza tomonidan qo'yilgan edi. Truppa spektakllarida musiqa etakchi o'rinni egallardi: pesa davomida artistlar qo'shiq va musiqali dialoglar ijro etishar edi, xor (bir ovoqli) va xalq cholg'u asboblari ansambli ishtirok etardi. Bu spektakllarning musiqasi truppa ishtirokchilari tanlagan xalq kuylari va Hamzaning qo'shiqlaridan iborat edi.

Asarlarni tanlash va o'rgatishda (notasiz) musiqa merosimizning taniqli bilimdonlari, hofizlar Mulla To'ychi Toshmuhamedov va Shorahim Shoumarov ishtirok etdilar. Bosh qahramon — Halima rolini (20-yillarning oxirida) keyinchalik nom qozongan o'zbek opera solistkasi Halima Nosirova o'ynadi. Bu spektakl tomoshabinlar ommasi orasida katta muvaffaqiyat qozondi.

Respublika musiqali teatr san'ati tarixida o'zbek adabiyotining asoschisi A. Navoiy dostonlarining instsenirovkalari ham muhim rol o'ynadi. Bu sohada «Farhod va Shirin» spektakli «dastlabki qaldirg'och» bo'ldi. Bu spektakl Navoiyning ana shu nomli dostoni asosida yaratilib, havaskorlar truppasi tomonidan 1922 yilda avval Toshkentda, so'ngra esa boshqa shaharlarda sahna yuzini ko'rdi. Spektakl musiqasi maqomlardan parchalar va boshqa og'zaki an'anadagi professional musiqa janrlari namunalaridan tashkil topgan bo'lib, xalq cholg'u asboblari ansambli jo'rligida artistlar tomonidan ijro etilardi. Navoiyning «Layli va Majnun» dostonining instsenirovkasi Toshkentda gastrolga bo'lgan ozarbayjon truppasining sezilarli ta'siri ostida amalga oshirilgan. O'zbek artistlari tomonidan qo'yilgan «Layli va Majnun»ning ilk postanovkalari (1922—23) da ozarbayjoncha musiqa saqlanib qolgan. 30- yillarning boshiga kelibgina «Layli va

«Majnun» musiqali dramasi o'zbek milliy repertuarining asari sifatida vujudga kelgan.

30-yillar musiqa ijodchiligida muhim tendentsiyalar ta'kidlanadi. Bu davrga kelib o'zbek musiqali teatrining shakllanishi yangi bosqichga kirdi, yangi janrlar— opera va balet vujudga keldi. O'zbek folklori kuylari zaminida simfonik asarlar paydo bo'lib ularning eng yaxshilari respublika musiqa hayotidan o'rin oldi. O'zbek romansi va kamercholg'u pesalar yaratishdagi birinchi tajribalar ana shu davrga to'g'ri keladi.

3. XX asrda ijod etgan Fitrat va musiqa

Abdurauf Fitrat qomusiy bilim egasi bo'lgan buyuk insonlardan biri . Shuning uchun ham islom va adabiyotimiz tarixi, O'rta Osiyoda yer-suv munosabatlari, arxitektura, tarix, o'zbek tili va madaniyati ravnaqi yo'lida samarali xizmat kildi. Fitrat klassik adabiyotning bilimdoni, tadqiqotchisi va targ'ibotchisi edi. U ulug' turk shoiri Tavfiq Fiqrat, qadimiy turk adabiyoti tadqiqotchisi Muhammad Fuod Kupirlizoda, Ismoil hikmat asarlarini mutola qildi, ularga ergashib, 250 bosma toboqqa yaqin ilmiy-badiiy meros qoldirdi.

Fitrat musiqamiz tarixini yoritish, «Shashmaqom»ni to'plash va notaga tushirish ishlarini O'zbekistonda birinchilardan bo'lib boshladi. U yaqin Sharq musiqa maktabini tashkil etishda tashabbus ko'rsatdi. Buxoro hukumatining farmoni bilan 1921 yilning 10 avgustida Fitrat Sharq musiqa maktabini birinchi boshqoni (direktori) qilib tayinlandi. Sharq musiqa maktabiga adib o'z hovlisini hadya etgan. (Buxoronikg Dzerjinskiy ko'chasidagi 8-hovli. Shu kunlarda shaqar Kommunal xo'jaligi yotoqxonasi). Mazkur musiqa maktabiga Domla halim Ibodov ilmiy bo'lim mudiri, «Shashmakom» bilimdonlaridan Shohnazar Shahobov, Boboqul Fayzullayev o'qituvchi bo'lib, keladganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha , Fitrat Buxoroning barcha nohiyalaridan iste'dodli yoshlarni atrofiga to'plagan. Uspenskiyga o'z yonidan haq to'lab «Shashmaqom»-ni notaga tushirishdek xayrli ishni bajargan. Biz shu kungacha buxorolik mashhur hofiz va bastakorlar Levicha hofiz, Gavriil Patak, quticha ellarning na ijodini, na hayotini bilamiz. Bu uchala zot "Bozori shab"da har kuni xonish qilishgan. Fitrat afandi ular bilan bevosita aloqada bo'lgan.

1928 yili «Alanga» jurnalining 2-sonida Fitratning «"O'zbek musiqasi to'g'risida» maqolasi bosildi. Musiqamiz haqida shunday yozadi: «...U bir musiqaki yolg'iz o'zining qlassik qismida uch yuzdan ortiq kuy saqlagan; bir musiqaki, bu kun o'n beshga yaqin cholg'uning egasidir; bir musiqaki, loyiq nazariyasi, usuli bor; uni maqtag'anlar to'g'ri so'zlaylar». Fitrat musiqamiz nazariyasi; tarixini chuqur xis etgan, bilgan. O'z davrining musiqachilaridan Ota Jalol bilan juda yaqin bo'lganligidan, Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning

tarixi" kitobida ta'kidlashicha, "Segoh" maqomidagi "Savt" sho'bachasini Ota Jalol Fitratning tashfiqi bilan 1922 yilda bastalagan.

Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitoba madaniyatimiz, jumladan, musiqa fanida katta voqeyadir. Ushbu kitob 1926 yilda yozilgan va 1927 yilda O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan Samarqandda chop etilgan. U 75 sahifadan iborat bo'lib, eski o'zbek yozuvida bosilgan. Risolaning orqa muqovasida mashhur bastakor Ota G'iyos Abdulg'aniyevning (1854 -1927) surati bor. Kitobning "muqaddima" fasli «O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi» tomonidan yozilgan. Kitob ikki qismdan iborat bo'lib birinchisida Sharq musiqasi (o'zbek musiqasi), usul va pardalar, har bir maqomning sho'bachalari hamda tanbur, mizrob, dutor, rubob, qo'biz, chang, g'ijjak, cho'shnay, nay, bolabon, surnay, karnay, doira va nog'oraning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari haqida so'z boradi. Ikkinchi qism esa «Musiqamiz tarixiga bir qarash» yoki «Turk musiqasi» deb nomlangan.

«Bizning eski kuylarimiz orasida, - deb yozadi Fitrat, - «Rok», «qator sarang» degan kuylar bor. «Rok» hindcha «maqom» demakdir. «Sarang» esa hind cholg'ularidan biridir. Bular musiqamizning ko'p eskidan (yolg'iz arab, eron emas) hatto hind musiqasidan ta'sirlanganligini ko'rsatadir». Fitrat mazkur risolada islomgacha bo'lgan musiqamiz tarixini ishonchli dalillar asosida baholashga harakat qilgan. U Abdulqodir Marog'iyning "Zubdat ul-advor", Muhammad ibn Mahmudning «Nafois ul-funun», Muhammad Fuod Kupirlizodaning «Milliy tatabbular majmuasi», hofiz Darvesh Ali Changiyning «Tuhfat us-surur», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», 1925 yilda Xorazmda yaratilgan «Xorazm musiqa tarixchisi» kabi muhim manbalarni chuqur o'rgangan. Shuning bilan birga maqomdagi har bir usulning nazariy tomonlarini nozik fahm ta'b ila yoritdi. O'zbek musiqasida qo'llanadigan 24 usulning bir-biridan farqli tomonlarini nazariy jihatdan farqlab berdi. O'n to'rtta cholg'u asbobi xususida mufassal ma'lumot yozib qoldirdi. Masalan, u tanbur haqida shunday yozadi: "Burungi musiqa kitoblarimiz «tanbur so'zani», «Tanbura» shaklida yozadirlarda, aslida yunoncha bir so'z ekanini so'ylaydilar. Bu cholg'uning chindanda yunondan bizga

kelib-kelmaganini terandan tekshirish mumkin bo`ladi. Biroq bu cholg`uning Sharqda juda eski bir narsa ekani ma`lumdir. Mashhur Nosir Sayyorning Xuroson valiyligi zamonida Xurosondan Shom shahriga «Tanbur»lar, «Barbat»-lar istanilgani «Ravzat us-safo»da xabar berilgan. O`rta Osiyo xalqlari orasida «Do`nbira» atalgan bir cholg`u bor. Tori ikkitadir. O`zi bu kungi bizning dutorimizdan kichkina, pardalari ham undan ozdir. Tanbur, Tanbura, Do`nbura so`zlarining birgina so`z ekanida shubha yo`qdir. Mana shu ma`lumotga tayanib eskidan borlig`i xabar etilgan. Tanbur - Tanburaning bu kungi do`nburaning xuddi o`zi yo shunga yaqin bir narsa ekaniga, ya`ni bu kungi bizning tanburimizning ikki torli, ibtidoiy bir shakli bo`lg`oniga hukm etilsa, yanglish bo`lmaydir. Hijriy o`ninchi asrda o`tgan hofiz Darvesh Ali Changiy tomonidan «tanburning burun zamonlarda ikki torli bo`lgani, so`nralari Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqashunosning unga bir tor orttirg`ani» to`g`risida berilgan xabar esa yuqoridagi fikrimizning kuchini orttirgan bo`ladir...» Fitrat har bir cholg`u asbobi xususida so`zlaganda uning uch tomondan ko`rinishini ham tasvir etadi.

«O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi» kitobining ikkinchi fasli "Musiqamizning keng tarixiga birkarang" yoxud "Turk musiqasi" deb nomlangan. «Arab istilosidan burun, - deb yozadi Fitrat, - millatlar orasida hech bir turli «olish-berish yo`q edi diymiz. Bor edi, kuchli edi, hamda kuchli edi. Biroq bu "olish-berish" shaklidagina bo`lar edi "birini tashlab - birini olish" shaklida emas edi». Haqiqatdan ham, islomgacha turli xalqlar o`rtasida o`zaro iqtisodiy, ma`daniy aloqalar bo`lganligi tabiiy bir hol. Arxeologik izlanishlar natijasida topilayotgan ko`pgani musiqa asboblari ham fikrimizning dalilidir. Ikkinchidan, insoniyat yer yuzida paydo bo`lgandan boshlab kuyga tabiiy ehtiyoj sezdi, Tabiat hodisalari, tiriklik olamidagi turli harakatlarni o`z «san`ati»ga singdira bordi. Shuning uchun har bir el tarixi bilan musiqasi tarixi uzviy bog`liqdir. Fitrat aytmoqchi, islomgacha o`zbeklarning ham o`z musiqalari, "o`z boshli nazariyalari"bo`lgan. Bu haqda quyidagi dalilni keltiradi: "Usmoniyali musiqa-shunoslardan Raif Yaktabekning marog`ali Xo`ja Abdulqodirdan ko`chirib yozganiga ko`ra turk (o`zbek)larda

uchta «usul doirasi» bor emish. Turklar butun kuylarni, ashulalarni shul uch usul "usul doirasi" uzra ijro qilar emishlar. Bularga «Ko`k»lar demishlar. Xitoylarda 360 ko`k bor emish. Turk hoqonlarining majlislarida har bir kunda chalinib bir yilda tamom bo`lur emish. Bu 360 ko`kning buyugi, asosi to`qqiz «Ko`k» emish. Bularning o`zlari: «Ulug` «Aslon chop», «Pure», "qulodu", "qutatg`u", "Bo`ristorqa", "Jontoy", "qoliqsoy", "Shaydoq" emish".

Fitratning xizmatlaridan yana biri, ushbu risolasida ilgarigi zamonlarda yashab ijod qilgan bastakor, hofizlar nomlarini, ular qoldirgan kitoblarini zikr qiladi. «hatto «Tuhfat us-surur»ning aytishiga ko`ra, - deb yozadi Fitrat, - mashhur Ulug`bek mirzoning o`zi ham musiqa olimlaridan sanalgan. Temurning bolalari zamonida qonunchi Darvesh Ahmadiy (Samarqand), naychi Sulton Ahmar (samarqandlik), turkcha, forsha ikki devon bilan musiqada bir risola egasi bo`lg`an. Qorako`llik hisomiy musiqada bir risola yozgan. Xorazmlik Abdul Vafo Tabib ham musiqa olimi bo`lgan. Balxlik Mavlono Sohib, o`z zamonasida atoqli bastakor sanalgan shahrisabzlik Abdulbaraka kabi kishilar yetishib musiqamiz uchun xizmat qildilar. Nag`orachi ham shoir bo`lgan qadimiy, Navoiyning musiqa muallimi Xo`ja Yusuf Burhon, Navoiyning tog`asi Muhammad Ali Haribiylar ham shul zamonning mashhur musiqashunoslaridan edila». Fitrat o`zbek musiqasining Ulug`bek zamonigacha bo`lgan davrini alohida ko`rib chiqish bilan birgalikda XIV-XV asrda Samarqandda o`zaro jang-jadallar, fisqu fasod kuchayib «go`zal san`atlar»ning markazi hirotga ko`chganligini yozadi: «Husayn Boyqaro ham Alisher Navoiyning himoyalari ostida chig`atoy (o`zbek) adabiyoti, chig`atoy musiqasining «oltin davri» hirotida ko`rila boshlaydir. Hirotida Husayn Boyqaro to`g`risidagi musiqa ustodlaridan so`zlaganda, boshlab, Navoiydan gapirishni qadrshunoslar yuzasidan lozim, deb bilamiz». Fitrat Navoiyning musiqa ilmi, o`z atrofiga musiqashunoslarni to`plab g`amxo`rlik qilganliklarini Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" sidan misollar keltirish bilan qayd etadi. Alisher Navoiyning o`zi ham bastakor bo`lgan degan fikrni ilgari suradi: «Musiqaning nazariy-amaliy yoqlaridan yaxshi bilar edi. Bobur mirzo o`zining mashhur asarida Navoiyning asarlarini sanar ekan «yana ilmi musiqada yaxshi

nimalar bog`labtur, yaxshi «peshravlari» bordur» deb, u zamonning istelohida ashula kuylarga «naqsh», ashulasiz kuylarga «peshrav» der ekanlar. Navoiyning usta bir san'atkor bo`lganini ko`rsatadir». Fitratning o`z iborasi bilan aytganda, haqiqatdan ham, u Alisher Navoiyning «buyuk qadrshunosi» edi. XVI asrda «Musiqqa haqida risola» yozgan, Najmiddin Kavkabiyning fojiali tagdiri haqida keltirilgan ma'lumotlar ham qimmatlidir.

Fitrat o`zbek xalq og`zaki ijodi uchun muhim faktlarni topadi: «Turk musiqasining bizda qolgan eng burung`i so`zlari - Baxshi - o`zanqo`buz so`zlaridir. «Baxshi so`zining bugungi ma`nosi el «shoir-cholg`uchi»sidir. El orasida "qo`biz" yo "do`nbira" chalib dostonlar o`qib yurgan maxsus kishilar - shoir-cholg`uchilar bor. Biz mana shularga «baxshi» deymiz. Xolbuki. Hijriy to`qqiz yuzinchi mo`ljalda, (Navoiy zamonida) bu so`z uyg`urcha yozgan kotib ma`nosida ishlatilar edi. Professor Kupirlizodaning Halokuxon zamonida «yozilg`on «Zich ilxon»idan ko`chirganiga ko`ra, «baxshilar har oyda uch kun parhez tutib nbodat qilar va belgili yemaklar yerlar». Bu so`zlardan Sharq musiqasi va musiqashunoslarning ibtidoiy madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarni bilib olishlari mumkin.

Fitrat musiqqa qudrati, sehrini chuqur bilgani uchun dramatik asarlarida qahramonlarni ruqiy holatlarini yorishda musiqadan unumli foydalangan. Ashtarxoniylar sulolasining so`nggi vakili Abulfayzxon (1711-1747) otasi, og`ainilari, yaqin kishilarining qonini to`kib, o`zi hokimiyatni egallab, ta`qib va shubha vasvasasida qolgan holatini Fitrat «Abulfayzxon» tarixiy fojiasida mahorat bilan yaratgan.

«Xon (Ulfatga)... tanburchilarga ayt, ikki tanburni kamoncha qilib, bir «husayniy» chalsunlar»...«Xon kulog`ini kiyib, yotoqda uzanib yotar. Tag`arida ikki kamonchining «husayniy» cholg`oni eshitilar. Cholg`u sekinlab, bitganda xon uxlag`on bo`lur. Bir oz so`ngra xonning o`ldurilgan akasining xayoli qonli kafan bilan ko`rinadir...»Ko`rinib turibdiki mungli kuy Abulfayzxonga ta`sir etadi. U o`z qilmishlarini ko`z oldiga keltiradi, vijdon azobiga chidolmaydi. Fitrat kuy yordamida ajoyib ruhiy holat yaratgan.

Abulfayzxon taxtdan ajrab, farzandlari ham o`z o`limini kutayotgan holatini esa «Bebokcha» kuyi yordamida beradi. Zero, "bunday ruhiy azob holatini shu kabi kuydan boshqa narsa ifoda etishi mumkik emas. Shu o`rinda beixtiyor, o`ylab qolasmz. «O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni yozgan, Sharq musiqa maktabiga boshqonlik qilgan, «Shashmaqom»ni to`plashda faollik ko`rsatgan, o`zi tanbur chalib, maromiga yetkazib g`azal ko`ylay oladigan Fitrat nahotki biror kuy bastalamagan bo`lsak har holda bu savolga izlanishlar orqaligina javob berish mumkin.

Xullas, Fitrat «O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni yozib musiqashunosligimizda o`chmas iz qoldirdi. U xalqimiz va merosimizning o`zi aytmoqchi, benazir qadrshunosi edi. Bu singari bebaho risolalarni tezroq chop etib xalqimizga berishimiz lozim.

XULOSA

Musiqiy madaniyatimizning barcha turlari kishilarga badiiy estetik zavq beribgina qolmay, ilmiy tushunchalar bilan ifodalash g'oyat mushkul bo'lgan olam sirlari haqida bilimlar beradi, hayot haqiqatini badiiy estetik vositalar orqali idrok etishga yaqindan yordam beradi.

Inson borlig'ini, ma'naviy taraqqiyotning musiqiy madaniyatimiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan barcha allomalar musiqa va qo'shiqchilik san'atning boy imkoniyatlarida to'la foydalanishga, san'at orqali ma'naviy kamolot cho'qqilarini zabt etishga muvaffoq bo'lganlar. Xalq musiqa va qo'shiqchilik san'atda xalqimizning uzoq tarixi, orzu-armonlari, hayot haqidagi bijassamloligandir. Har bir halqning ma'naviy saloxiyati, jahon madaniyati rivojiga qo'shgan xissa uning musiqiy madaniyati bilan belgilanadi.

Ulug' ajdodlarimiz musiqa va qo'shiqchilik san'atining inson shaxsini kamol topltirish, oliyjanob insoniy fazilatlarini tarbiyalashdagi ahamiyatiga yuksak baho borganlar.

Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, musiqiy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini ularning o'ziga xos va betakror ijrochilik mahoratini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mustaqillik mafkurasini yaratishda, uning bosh bo'g'ini bo'lishi ma'naviy madaniyatini yoshlar o'rtasida targ'ib etishda musiqiy madaniyatimiz durdonalarini va uning rivojiga salmoqli xissa qo'shgan buyuk san'atkorlar xayoti va ijodini o'rganish chuqur katta tarbiyaviy va ma'orifiy ahamiyatga egadir.

O'zbek va qirg'iz xalqning boy musiqiy ijodiyoti uzoq tarixlarga borib taqaladi. Uning rivojlanishi bosqichlari qadamma-qadam hayot qonunlari asosida o'lchanib kelingan.

Umumiy xulosaga yakun yasaladigan bo'lsa, shuni e'tirof etish zarur bo'ladiki, o'zbek xalqning musiqa madaniyati dar'haqiqat dunyo sivilizatsiyasida ma'naviy xayotda o'z o'rniga boqiyiligiga ega bo'lgan san'at xisoblanadi va bu bilan hozirgi avloddan faxrlanish tuyg'usini, o'yg'atadi. Barkamas avlod tarbiyasida bugungi ma'naviyatimizning bosh bo'g'ini sifatida labbay deb javob beradi.

Buyuk ne'mat atalmish mustaqillik musiqiy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o'ziga xos betakror ijrochiligini ma'horatini har tomonlama chuqur o'rganish va tag'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Mutsaqillik mafkurasini yaratishda uning bosh bo'g'ini bo'lmish ma'naviy madaniyatini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish musiqa madaniyatimizning betakror ijrorlarini ularga singdirish va bu yo'lda ijod qilgan ulug' san'atkor ustozlarning xayoti va ijodlarini chuqur o'rganish katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Zero bu borada o'zbek musiqa madaniyati zarvaroqlari xamisha o'zining yangi qirralari bilan namoyon bo'laveradi

Tayanch tushunchalar:

1. Turikiston o'lkasida, SPB, 1913., 395 b.
2. Avgust Fedorovich Eyxgorn. 1844 yil Avstriyaning Lasnits shahrida tug'ilgan, skripkachi, bastakor, u 1870-1883 yillarda Toshkentda yashab ishlagan.
3. Leysek V.V. Turkistonga 1878 yil kelgan. Chex bastakori va dirijyori. Rus va evropa kuylarining faol targ'ibotchisi. Toshkentdagi "Lira" xor jamiyatining asoschisi va bevosita rahbari. Rustam Hofiz, Hamroqul Qori, Qurbonboy Xoji, Xotam Qori, Erqa Qori va boshqa cholg'uchilar, xonandalar bilan yaqindan ijodiy hamkorlikda bo'lib, 400 ga yaqin o'zbek xalq kuylari va qo'shiqlarini yozib olgan. Ular orasida "Karimqulbegi", "Istambul marshi", "Mustahzod", "Ufori", "Qashqarcha" kabi asarlar bor.
4. Leysek V.V. Turkistonga 1878 yil kelgan. Chex bastakori va dirijyori. Rus va evropa kuylarining faol targ'ibotchisi. Toshkentdagi "Lira" xor jamiyatining asoschisi va bevosita rahbari. Rustam Hofiz, Hamroqul Qori, Qurbonboy Xoji, Xotam Qori, Erqa Qori va boshqa cholg'uchilar, xonandalar bilan yaqindan ijodiy hamkorlikda bo'lib, 400 ga yaqin o'zbek xalq kuylari va qo'shiqlarini yozib olgan. Ular orasida "Karimqulbegi", "Istambul marshi", "Mustahzod", "Ufori", "Qashqarcha" kabi asarlar bor.
5. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. T., 1995
6. Vo`zgo T. Muzo`kalno`e instrumento` Sredney Azii. M.1980., 168 s.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov «Barkamol avlod orzusi», T.. 1998.
2. «Yangichcha fikrlash va ishlash davr talabi». O'zbekiston – 1997y.
3. «Istiqlol va ma'naviyat» I. A. karimov. O'zbekiston-1994y.
4. O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi T.E.Solomonova. Toshkent «O'qituvchi» 1981.
5. Mualliflar guruhi O'zbekiston san'ati «Toshkent». «Sharq» nashriyoti, 2001.
6. M.Abdullaev. Madaniyatshunoslik asoslari. «Farg'ona nashriyoti», 1998 y.
7. S.Mannopov. O'zbek xalq musiqa madaniyati. Toshkent «Yangi asr avlodi»2004.
8. R.Tursunov. Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti «Madodkor» nashriyoti, Toshkent, 2002y.
9. N.Abdullaev. San'at tarixi. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 1987 y.
10. Mualliflar guruhi. Musiqa ijodiyoti masalalari. Toshkent 1997 yil.
11. S.Mannonov. So'nmas navolar «Farg'ona» nashriyoti, 2003 yil.

Elektron – ta'lim resurslar

1. www.tdpu.uz
2. www.pedaqoq.uz
3. www.Zionet.uz
4. *tdpu – INTERNET. Ped*

Оромижон

Машраб сўзи
Халқ мусикаси

М.М. ♩=56-60

Ю-зинг - ни кўр -

-са-тиб ав - вал ў-зинг - га ба - н - да-лар қил - динг

Я-на кўнг - ли - м о-либ юз но - з (ки)бир - ла

ха - н - да-лар қил - динг. Жа - мо - линг па - р -

та-винг со - ли - б а-жо - йиб жил - ва-лар қил -

- ди - нг Ма-сих - дек бир бо-қиш - да мур -
Сен-га мен то қи - ё - ма - т о -

-да жис - мим зи - н - да-лар қил - динг.
ши-но деб ваъ - да-лар қил - динг.

Деб эр-динг ке - ча - ю кун -
Ти-кон-дек суҳ - ба - тинг - да

дуз се - нинг ё - ди - нг бў - лур ман деб
бир гу - ли но - ри - нг бў - лур ман деб

Жа - фо - ни сен - га оз ай -

лаб ва - фо - до - ри - нг бў - лур ман деб.

У - ми - дим кў - п э - ди ёл - ги -

-з, ха - ри - до - ри - нг бў - лур ман деб о - А - жаб ким

ха - лқ А - жаб бир ха - лқ и - чин - да

бў - л ха - вас деб шик - ва - лар қил - динг.

Yuzingni ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding,
 Yana ko'nglim olib yuz noz birla xandalar qilding,
 Jamoling partaving solib ajoyib jilvalar qilding,
 Masixdek bir boqishda murda jismim zindlar qilding,
 Senga men to qiyomat oshino deb va'dalar qilding.

Deb erding kecha-kunduz sening yoring bo'lurman deb,
 Tikondek suhbatingda bir gulinoring bo'lurman deb,
 Jafoni senga oz aylab vafodoring bo'lurman deb,
 Umidim ko'p edi yolg'iz xaridoring bo'lurman deb,
 Ajabkim xalq ichinda bul havas deb shikvalar qilding.

Гул фаслидур

♩=80

♩=100-104

Халқ сўзи

Ўй-на - гил эй дил-ра - бо ай - ё - ми -

миз гул фас - ли - дур, Биз би-лан бўл - гил га - зал -

хон чун - ки бу дил фа - с - ли - дур. Соч - ла - ринг -

-ни ё - за ё - за яй - ра - гил сен биз би-лан,


Атр бўй - лар тар - қа - тиб юр чун - ки сун -

бул фас - ли - дур.

Қоп - қа - ро кўз - дан тў - ки - б

ёш бўл - ма - гил сен кўп у - во - л, Ўс - ма

ю - рай - хон - ни то - ки баз - ми жам - шид фас - ли - дур.



O'ynagil, ey dilrabo ayyomimiz gul faslidur,
 Biz bilan bo'lg'il g'azalxon, chunki bu dil faslidur.
 Sochlaringni yoza-yoza yayragil sen biz bilan,
 Atr bo'ylar tarqatib yur, chunki sunbul faslidur.

Qop-qora ko'zdan to'kib yosh bo'lmag'il sen ko'p uvol,
 O'smayu-rayhonni boki bazmi jamshid faslidur.
 Sarvlar gullar chamanlar sahnida ta'zim uchun,
 Bog' aro sayr etgali yur, chunki bu gul faslidur.

Сочим учи қўнғирок

Халқ мусиқаси
ва сўзи

M.M. ♩=108-112



Sochim uchi qo'ng'iroq, o'zim aylanay,

Yor menga qilma firoq, ey voy sanam.

Yor menga qilsang firoq, o'zim aylanay,

Boray desam yo'l yiroq, ey voy sanam.

Бизнинг айвон

Халқ сўзи

Т.Жалилов мусикаси

М.М. ♩=76-80



Биз - нинг ай - вон сиз - ни ўр - ги - лай



ай - во - н э - мас - му, Ўр - та - си - да



чин - ни ўр - ги - лай ра - во - н э - мас - му.



Ке - ла - сиз - у ке - та - сиз бир сўз де - май - си - з,



Ке - ла - сиз - у ке - та - си - з бир сўз де - май - сиз -



-з, Бу ҳам - ма - си ю - рақ - ка ўр - ги - лай ар - мон э - мас - му.



Тоғ-да ар - ча
 Сен гў - зал - ни
 минг йил ўр-ги-лай у - мр кў- рар - му,
 из - лаб ўр-ги-лай бўс- тон - ни кез - дим,
 Шо-хи син - са зар - гар ўр-ги- лай ку - му - ш ки - лур - му.
 Ў-шал кез - ган бўс- тон ўр-ги- лай гул- зо - р э - мас - му.
 О Зар - гар - ни кил - га - ни ўр-ги- лай
 О Ме - нинг жо - ним се - ни - нг ўр- ги- лай
 ар - ча бў - лур - му, Би - либ бер - га - н
 жо - ни - нг э - мас - му, Ме - нинг жо - ни - м
 кўн - гу - л ўр-ги- лай жу - до бў- лур - му.
 сен - га - а ай-ла- най қур - бон э - мас - му.

Bizning ayvon sizni o'rgilay ayvon emasmu,
 O'rtasida chinni o'rgilay ravon emasmu.
 Kelasizu-ketasiz, bir so'z demaysiz,
 Bu hammasi yurakka o'rgilay armon emasmu.

Tog'da archa ming yil o'rgilay umr ko'rurmu,
 Shoxi sinsa zargar o'rgilay kumush qilurmu,
 Zargarni qilgani o'rgilay archa bo'lurmu,
 Bilib bergan ko'ngul o'rgilay judo bo'lurmu.

Сен го'зални излаб о'ргулай чо'лларни кездим,
 О'шал кезган чо'ллар о'ргилай бо'стон эмасму.
 Менинг жоним сенинг о'ргилай жонинг эмасму,
 Менинг жоним о'ргулай сенга қурбон эмасму.

Шароб






Бобур ғазали
 Халқ мусикаси

Ким кў - ру - р ху - р - ши - д(и) - ни

ул мо - хи сий - мо бўл - ма - са - а, Ким сў - ру

- - р шак - ка - р - ни ул лаъ - ли ша - ка

- - р - хо бўл - ма - са - а. Гул ти - кон - н -



-р иш - ки - нг - да э - й Бо - бур се - ни - нг, Гар бо - ши

нг - ни кес - са - ла - р иш - ки - нг - да

э - й Бо - бур се - ни - нг, Ё - р - ди -

- н кўнг - линг ке - ра - к - ким ўз - га

қа - т - во бўл - ма - са - а.

Kim ko'rur xurshidni ul mohisiymo bo'lmasa,
 Kim so'rur shakkarni ul la'li shakkarxo bo'lmasa.
 Gul tikondur ko'zlarimga ul yuzi guldin yiroq,
 Sarvi o'qdur bog'ima ul sarvi balo bo'lmasa.

Tiymog'il devona ko'nglmnik i rasvo bo'lmasa,
 Oshig' o'lg'aymu edi ul telba ma'vo bo'lmasa.
 Gar boshingni kessalar ishqida ey Bobur sening,
 Yordin ko'ngling kerakkim o'zga qatvo bo'lmasa.

Айлагач

Навойи ғазали

Холхўжа Тўхтасинов мусикаси

М.М. ♩=72-76



Хус - ни ор - тар



юз - да зул - финг ан - ба - раф - шон ай - ла - гач,



Шаъ - ми рав - шан - рок бў - лу - р то - рим па - ри - шон



ай - ла - гач. Юз - ни гул - лар - дин бе - зар - му



биз - ни қур - бо - н ай - ла - ди, Ё ю - зинг - га



тег - ди қон - ла - р (ей) биз - ни қур - бон ай - ла - гач.



Қон э - мас - ким
Жон - да қуй - гач

ён - ди гул - гу - н хул - ла жан - на - т хо - зи - ни - и,
нақ - ди иш - ки - нг қил - ди қўнг - лим - м - ни ҳа - ло - қ,
Ишқ мақ - ту - лин ша - ҳид ай -
Ўл - ти - рур мах - рам - ни сул - тон
- лар - да ур - ё - н ай - ла - гач. Ош - кор ай - лар ю - зи -
ган - жи пин - ҳо - н ай - ла - гач. Эй На - во - ий ишқ а - гар қўнг -
- нг қўзинг - ни ҳай - рон ай - ла - ди, Ё - шу - рин ол -
лим - ни маж - руҳ эт - ма - ди, Бас не - дур - ким
- ди қўн - гул қў - зим - ни чир - ён ай - ла - гач.
қон ке - лур оғ - зинг - дин аф - ғон ай - ла - гач.

Husni ortar yuzda zulfing anbarafshon aylagach,
Sha'mi ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.
Yuzni gullardan bezabmu bizni qurbon ayladi,
Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach.
Qon emaskim yopdi gulgun xulla jannat xozini,
Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.
Oshkor aylab yuzing ko'zingni hayron ayladi,
Yoshurin oldi ko'ngil ko'zimni chiryon aylagach.
Jonda qo'ygach naqdi ishqing qildi ko'nghlimni halok,
O'ltirur mahramni sulton ganji pinhon aylagach.
Ey Navoiy, ishq agar ko'nghlimni majruh etmadi,
Bas nedur kim qon kelur og'zingdan afg'on aylagach.

Не наво

Навойи ғазали

Ю.Ражабий нотага олган

М.М. ♩=80

Не - на - во

соз ай - ла-гач, бул - бул гу - лис - тон - дин жу - до.

Ай - ла - мас тў - ти так - кал - лум шак -

ка - рис - тон - дан жу - до (ё - о - о -

о).

Ул ку -

ёш хаж-ри - да, кўр - қар мен фа - лак - ни ўр - та-гай

(о - ё - ро).

Ҳар ша - ро - ри - ким бў-лур бул ўт - лиғ аф -

гон - дин жу - до (ё - о - о).

Ҳажр ў - лим -

данталх э - миш мун - дан сўнг, эй, гар - дун ме - ни

Ай - ла - гил жон - дан жу - до қил - ғун - ча жо -

нон - дан жу - до (ё - - - - - о -

1. 2.

- - о - - - - о - - - - о).

Ne navo soz aylagach, bulbul gulistondan judo,
 Aylamas to'ti takallum shakaristondan judo.
 Ul quyosh hajringda qo'rqarman falakni o'rtagay,
 Har sharorikim bo'lur bul o'tlig' afg'ondin judo.
 Hajr o'limdan talx etmish mundan so'ng ey gardun meni,
 Aylagil jondin judo qilguncha janondin judo.